

AGATA KRISTI DETEKTIVLARIDA TIL VA MUHIT UYG'UNLIGI: TARJIMON UCHUN LINGVOMADANIY VAZIFALAR (INGLIZ QISHLOQ MUHITI, KOLONIAL KONTEKSTLAR, ARISTOKRATIK MUHIT, XIZMATKORLAR NUTQI TARJIMASI)

Roziqova Nigora

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

"Xorijiy til va adabiyoti" -yo'nalishi 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19074728>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Agata Kristining detektiv asarlarida til va muhit o'rtasidagi murakkab uyg'unlik lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Ingliz qishloq muhiti, Britaniya imperiyasi davriga xos kolonial kontekstlar, aristokratik jamiyat nutqi hamda xizmatkorlar ijtimoiy qatlamiga mansub nutq xususiyatlari tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Tadqiqotda lingvomadaniyatshunoslik, sotsiolingvistika va badiiy tarjima nazariyasining yetuk olimlari – V. N. Teliya, E. Nida, L. Venuti, P. Newmark, G. Toury kabi tadqiqotchilar qarashlariga tayanilgan. Maqolada Agata Kristi asarlaridan olingan real misollar asosida tarjimonning madaniy vositachi sifatidagi roli yoritilib, muhitga xos nutq birliklarini adekvat tarjima qilishda kontekstual va pragmatik omillarning ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari badiiy tarjima amaliyotida lingvomadaniy kompetensiyaning hal qiluvchi o'rnini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** Agata Kristi, badiiy tarjima, lingvomadaniyat, detektiv janr, ingliz qishloq muhiti, kolonial diskurs, aristokratik nutq, xizmatkorlar tili, sotsiolingvistika.*

Kirish

XX asr ingliz adabiyotining yirik namoyandalardan biri bo'lgan Agata Kristi detektiv janrni nafaqat syujet qurilishi va mantiqiy yakunlar orqali, balki til va muhitning chuqur uyg'unligi orqali ham yangi bosqichga olib chiqqan yozuvchilardan biridir. Uning asarlari bugungi kunda jahon adabiyotining klassik namunalaridan biri sifatida e'tirof etilib, ko'plab tillarga tarjima qilingan. Shunga qaramay, Agata Kristi detektivlarining tarjimasini masalasi hanuzgacha murakkab va ko'p qirrali ilmiy muammo bo'lib qolmoqda. Bu murakkablik, avvalo, yozuvchining asarlarida til birliklari muayyan ijtimoiy, madaniy va tarixiy muhit bilan uzviy bog'liq holda qo'llanishi bilan izohlanadi.

Zamonaviy tarjimashunoslikda badiiy matnni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki madaniy fenomen sifatida o'rganish tendensiyasi tobora kuchayib bormoqda. Ushbu yondashuv doirasida lingvomadaniyatshunoslik alohida ahamiyat kasb etadi. V. N. Teliya ta'kidlaganidek, til madaniyatni aks ettiruvchi va uni avloddan-avlodga yetkazuvchi asosiy vositalardan biridir. Agata Kristi asarlarida esa til orqali ingliz jamiyatining turli ijtimoiy qatlamlari, qadriyatlar tizimi, axloqiy me'yorlari va tarixiy tajribasi ifodalanadi. Shu bois, ushbu asarlarni tarjima qilish jarayonida tarjimon oddiy til vositachisi emas, balki madaniyatlararo kommunikatsiya subyektini sifatida maydonga chiqadi. Agata Kristi detektivlarining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda jinoyat har doim aniq bir muhitda sodir bo'ladi. Ingliz qishloq muhiti, aristokratik oilalarga mansub yopiq jamiyatlar, kolonial tajribaga ega shaxslar to'plangan makonlar yoki ijtimoiy jihatdan quyi qatlam vakillari ishtirok etadigan vaziyatlar asar syujetining ajralmas qismi hisoblanadi. Bunday muhitlar nafaqat voqealar rivojiga, balki personajlar nutqi, muomala madaniyati va til tanloviga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli tarjimada ushbu muhitlarga xos nutq xususiyatlarini e'tiborsiz qoldirish asarning semantik va pragmatik qatlamini sezilarli darajada yo'qotishga olib kelishi mumkin.

Ingliz qishloq muhiti Agata Kristi ijodida alohida o'rin tutadi. Bu muhit ko'pincha tashqi tomondan tinch va osoyishta, ichki jihatdan esa murakkab ijtimoiy munosabatlarga boy makon sifatida tasvirlanadi. Qishloq ahlining nutqida bilvosita kinoya, ehtiyotkorlik bilan aytilgan tanqid, ijtimoiy masofani saqlovchi muomala shakllari ustunlik qiladi. Tarjimon uchun bunday nutq birliklarini adekvat tarzda qayta yaratish oson emas, chunki ular faqat til emas, balki ingliz madaniyatiga xos kommunikativ xulq-atvorni ham o'zida mujassamlashtiradi.

Bundan tashqari, Agata Kristi asarlarida Britaniya imperiyasi davriga xos kolonial kontekstlar muhim lingvomadaniy qatlamni tashkil etadi. Sharq mamlakatlari, mustamlaka hududlari, xorijiy madaniyat vakillariga bo'lgan munosabat yozuvchining ayrim asarlarida ochiq yoki bilvosita tarzda namoyon bo'ladi. Ushbu kontekstlar Edward Said tomonidan ta'riflangan "orientalistik diskurs" bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni tarjimada zamonaviy madaniy sezgirlik nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish tarjimon oldiga murakkab vazifalarni qo'yadi.

Tarjimon tarixiy realizm va hozirgi davr madaniy qabul qilinuvchanligi o'rtasida muvozanatni saqlashi zarur. Agata Kristi detektivlarida aristokratik muhit va xizmatkorlar nutqi o'rtasidagi keskin farq ham alohida e'tiborga loyiq. Aristokratik qatlam vakillari nutqida rasmiylik, murakkab sintaktik tuzilmalar, yashirin istehzo va nutqiy nazokat ustuvor bo'lsa, xizmatkorlar nutqida soddalik, ijtimoiy itoatkorlikni ifodalovchi formulalar va ba'zan dialektal unsurlar kuzatiladi. Ushbu farqlar ingliz jamiyatidagi ijtimoiy ierarxiyani aniq aks ettiradi. Tarjimon uchun esa bu ierarxiyani boshqa til va madaniyat sharoitida saqlab qolish dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, Agata Kristi asarlarining o'zbek va boshqa tillarga tarjimalarida ko'pincha muhitga xos nutq rang-barangligi yetarli darajada aks ettirilmaydi. Natijada personajlar o'rtasidagi ijtimoiy masofa, madaniy kodlar va nutqiy xususiyatlar soddalashtirilgan yoki neytrallashtirilgan holda beriladi. Bu esa asarning badiiy-estetik ta'sirini pasaytiradi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Agata Kristi detektiv asarlarida til va muhit uyg'unligini lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilish hamda ingliz qishloq muhiti, kolonial kontekstlar, aristokratik va xizmatkorlar nutqini tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda sotsiolingvistika, tarjimashunoslik va lingvomadaniyatshunoslikning nazariy qarashlariga tayanilib, tarjimonning madaniy vositachi sifatidagi roli yoritiladi. Shu tariqa, mazkur tadqiqot Agata Kristi asarlarining tarjimasida lingvomadaniy omillarning ahamiyatini ochib berishga hamda badiiy tarjima amaliyotida muhit va til uyg'unligini saqlash masalasiga ilmiy yondashuvni taklif etishga qaratilgan.

Agata kristi detektiv asarlarida til va muhit uyg'unligining nazariy asoslari

Zamonaviy filologiya va tarjimashunoslikda "muhit" tushunchasi faqat voqealar sodir bo'ladigan makon yoki vaqt bilan chegaralanmaydi. Muhit badiiy matnda ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar, nutqiy me'yorlar va kommunikativ xulq-atvor tizimini o'z ichiga olgan murakkab hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, muhit til birliklarida kodlangan madaniy axborotning asosiy tashuvchisidir. V. N. Teliya muhitni "til orqali ifodalangan madaniy tajriba maydoni" sifatida talqin qilib, badiiy matnda u doimo milliy ong va madaniy stereotiplar bilan bog'liq holda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Aynan shu jihat Agata Kristi detektiv asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Yozuvchi har bir asarida muhitni personajlar nutqi, muomala shakllari, ijtimoiy masofa va kommunikativ strategiyalar orqali jonlantiradi. Agata Kristi uchun muhit tasviri syujetga xizmat qiluvchi passiv fon emas, balki voqealar rivojiga faol ta'sir ko'rsatuvchi omildir.

Masalan, ingliz qishloqlariga xos yopiq ijtimoiy makon jinoyatni yashirish yoki fosh etishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun tarjimon muhitni ifodalovchi til birliklarini adekvat tarzda qayta yaratmas ekan, asarning ichki mantiqi va estetik qiymati to'liq ochilmaydi.

Detektiv janrda tilning funksional yuklamasi

Detektiv janr o'ziga xos nutqiy xususiyatlarga ega bo'lib, unda til bir vaqtning o'zida bir nechta funksiyani bajaradi: axborot berish, yashirish, chalg'itish va ishora qilish. Agata Kristi asarlarida bu funksiyalar ayniqsa nozik tarzda uyg'unlashgan. Personajlarning nutqi ko'pincha yuzaki mazmun bilan cheklanib qolmay, yashirin ma'nolarni ham o'z ichiga oladi. Roman Jakobsonning til funksiyalari haqidagi nazariyasiga ko'ra, badiiy matnda poetik va pragmatik funksiyalar ustunlik qiladi. Agata Kristi detektivlarida esa pragmatik funksiya – ya'ni muayyan vaziyatda nutqning qanday ta'sir ko'rsatishi – muhit bilan chambarchas bog'liq. Masalan, aristokratik muhitda ochiq ayblash yoki keskin bahs madaniy jihatdan maqbul emas, shu sababli nutq bilvosita, kinoyali shaklda ifodalanadi. Tarjimon bunday nutqni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilsa, uning funksional yuklamasi yo'qoladi.

Detektiv janrda tilning yana bir muhim jihati – ijtimoiy identifikatsiya vositasi sifatida namoyon bo'lishidir. Personajning qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligi ko'pincha uning nutqi orqali aniqlanadi. Agata Kristi aynan shu usuldan mahorat bilan foydalanib, xizmatkorlar, aristokratlar, harbiylar yoki kolonial tajribaga ega shaxslarni nutq orqali ajratib ko'rsatadi.

Lingvomadaniy kompetensiya va tarjimon mas'uliyati

Badiiy tarjimada lingvomadaniy kompetensiya tarjimonning asosiy professional sifatlaridan biri hisoblanadi. Eugene Nida tarjimoni "madaniyatlararo ekvivalentlik jarayoni" sifatida talqin qilib, tarjimon faqat tilni emas, balki madaniyatni ham tarjima qilishini ta'kidlaydi.

Agata Kristi asarlari misolida bu fikr o'z tasdig'ini topadi. Tarjimon uchun asosiy muammo shundaki, ingliz jamiyatiga xos madaniy kodlar boshqa madaniyat vakillari uchun doimo ham tushunarli bo'lavermaydi. Masalan, ingliz qishloq muhitiga xos bo'lgan "polite distance" yoki aristokratik muomala madaniyati boshqa tillarda to'liq ekvivalentga ega emas. Shu bois tarjimon funksional va pragmatik moslashtirish strategiyalaridan foydalanishga majbur bo'ladi. L. Venuti tomonidan ilgari surilgan "xorijiyashtirish" va "milliyashtirish" strategiyalari Agata Kristi asarlarini tarjima qilishda alohida ahamiyatga ega. Agar tarjimon muhitni haddan tashqari milliyashtirsa, asarning inglizona ruhiyati yo'qoladi; aksincha, to'liq xorijiyashtirish o'quvchi uchun matnni qabul qilishni qiyinlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, muvozanatli yondashuv eng maqbul hisoblanadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot Agata Kristi detektiv asarlarida til va muhit uyg'unligini lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, yozuvchining badiiy matnlari faqatgina jinoyat syujeti va mantiqiy yechim bilan cheklanmay, balki muayyan ijtimoiy, madaniy va tarixiy muhitni aks ettiruvchi murakkab til tizimini o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli Agata Kristi asarlarini tarjima qilish jarayoni tarjimonidan yuqori darajadagi lingvomadaniy kompetensiyani talab etadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Agata Kristi detektivlarida muhit voqealar rivojiga passiv fon bo'lib xizmat qilmaydi, balki syujet, personajlar xarakteri va nutqiy strategiyalarni belgilovchi faol omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ingliz qishloq muhiti, aristokratik jamiyat, kolonial tajribalar bilan bog'liq kontekstlar hamda xizmatkorlar qatlamiga xos nutq shakllari asarlarda o'ziga xos lingvistik belgilar orqali ifodalanadi. Ushbu belgilar tarjimada to'liq va adekvat aks ettirilmasa, matnning badiiy-estetik qiymati sezilarli darajada kamayadi.

Ingliz qishloq muhiti Agata Kristi ijodida eng ko'p uchraydigan va eng nozik lingvomadaniy qatlamlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida ushbu muhitga xos bo'lgan bilvosita muloqot, understatement hodisasi, ijtimoiy masofani saqlovchi nutq birliklari va yashirin baholash usullari aniqlandi. Bu xususiyatlar ingliz madaniyatining kommunikativ modelini aks ettirib, personajlar o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Tarjimon ushbu nutqiy modelni anglamagan holda matnni tarjima qilsa, personajlarning xarakteri va muhit ruhiyati buzilib ketishi mumkin. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ingliz qishloq nutqini tarjima qilishda so'zmaso'z yondashuv samarasiz bo'lib, funksional-pragmatik ekvivalentlik asosiy strategiya sifatida qo'llanilishi lozim. Tarjimon har bir nutq birligining madaniy va kommunikativ vazifasini aniqlab, tarjima tilida shu vazifani bajara oladigan vositalarni tanlashi zarur. Bu jarayonda madaniy moslashtirish va muvozanatli izohlash usullari muhim ahamiyat kasb etadi.

Agata Kristi asarlarida uchraydigan kolonial kontekstlar ham tarjimon uchun murakkab lingvomadaniy muammolarni yuzaga keltiradi. Britaniya imperiyasi davriga xos qarashlar, "markaz" va "periferiya" o'rtasidagi qarama-qarshilik, xorijiy madaniyatlarga bo'lgan munosabat yozuvchining ayrim asarlarida bilvosita yoki ochiq tarzda namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tarjimon ushbu kontekstlarni tarixiy realizm doirasida saqlagan holda, zamonaviy o'quvchi uchun maqbul va tushunarli tarzda yetkazishi lozim. Aks holda, matn ideallashtirilgan yoki aksincha, sun'iy tarzda yumshatilgan ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Aristokratik muhit va xizmatkorlar nutqi o'rtasidagi farq Agata Kristi detektivlarida ingliz jamiyatining ijtimoiy ierarxiasini yaqqol aks ettiradi. Aristokratik nutq murakkab sintaktik tuzilmalar, rasmiylik va yashirin istehzo bilan ajralib tursa, xizmatkorlar nutqida soddalik, itoatkorlik va ba'zan dialektal unsurlar ustunlik qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tarjimada ushbu nutqiy farqlarni yo'qotish asardagi ijtimoiy muvozanatni buzadi va personajlarning nutqiy individualligini susaytiradi. Shu bois tarjimon ijtimoiy statusni ifodalovchi stilistik vositalarni ehtiyotkorlik bilan tanlashi zarur.

Nazariy tahlillar Eugene Nida, Peter Newmark, Lawrence Venuti va Gideon Toury kabi olimlarning tarjima nazariyalarining Agata Kristi asarlarini tahlil qilishda dolzarbligini ko'rsatdi.

Xususan, ekvivalentlik, norma, qabul qilinuvchanlik hamda xorijiyashtirish va milliyashtirish strategiyalari muhitga xos nutq birliklarini tarjima qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ushbu nazariy qarashlarning amaliy tarjima jarayonida samarali qo'llanishi mumkinligini tasdiqladi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot Agata Kristi detektiv asarlarida til va muhit uyg'unligi tarjimon faoliyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tarjimon faqat til birliklarini emas, balki ular ortida turgan madaniy kodlar, ijtimoiy munosabatlar va tarixiy tajribani ham hisobga olishi lozim. Bu esa tarjimonni madaniy vositachi sifatida qarash zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari badiiy tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Xususan, detektiv janr tarjimasida muhit va nutq uyg'unligini saqlash masalasi kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot materiallari filologiya va tarjimashunoslik yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar, magistrantlar hamda badiiy tarjima bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun nazariy va amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Christie, A. *The Murder at the Vicarage*. London: Collins Crime Club, 1930.
2. Christie, A. *Murder on the Orient Express*. London: Collins Crime Club, 1934.
3. Nida, E. A. *Toward a Science of Translating*. Leiden: E. J. Brill, 1964.
4. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. London: Prentice Hall, 1988.
5. Venuti, L. *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. London–New York: Routledge, 1995.
6. Toury, G. *Descriptive Translation Studies and Beyond*. Amsterdam–Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1995.
7. Teliya, V. N. *Lingvokul'turologiya: metodologiya i metody*. Moskva: Nauka, 1996.
8. Said, E. W. *Orientalism*. New York: Pantheon Books, 1978.
9. Yo'ldoshev, B. *Badiiy tarjima nazariyasi*. Toshkent: Fan, 2008.
10. Qodirova, M. A. *Lingvomadaniyatshunoslik asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2015.